

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika fakulteti

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrası

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi

3-kurs T 1 guruh talabasi

BOBOJONOVA UMIDANING

“Tasviriy san`at o`qitish metodikasi”

fanidan

TALABALARNING SAN`ATSHUNOSLIK MADANIYATINI

RIVOJLANTIRISH

mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

S.T.Sa`diyev

Navoiy

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri _____

«___» _____ 20__y.

KURS (ishi) LOYIHASI

_____ fan bo'yicha

Guruh _____ talaba _____

Rahbar _____

TOPSHIRIQ

1. Ishlanadigan kurs ishi mavzusi

2. Kurs (ishi) loyihasini bajarish rejasi

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____

Kurs ishining yakuniy natijalari

Uslubiy qism	Ko'rgazmali qurollar	Adabiyotlar	Rasmiylashtirish	Himoyachi	Jami ball

Rahbar _____

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasining
20__-yil _____dagi ___-sonli yig`lish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar:

K U N T A R T I B I

20__-20__-o`quv _____ yilida
_____ fakulteti

_____ ta`lim yo`nalishi talabasi
_____ ning

kurs ishi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: katta o`qituvchi S.A.Shovdirov so`zga chiqib kafedra a`zolarini kurs ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

_____ nomli kurs ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib _____ belgilansin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi. S.A.Shovdirov

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasining
20__-yil _____dagi ____-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar:

K U N T A R T I B I

3-kurs talabalarining kurs ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: katta o`qituvchi S.A.Shovdirov so`zga chiqib, kafedra a`zolarining san`at tarixi va tasviriy san`at o`qitish metodikasi hamda kompyuter grafikasi fanlari bo`yicha tayyorlagan kurs ishilar haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, kurs ishining xulosasi, zaruriy hujjatlari rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng talaba: _____

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Kurs ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi.

MAJLIS QAROR QILDI:

1. Talaba: _____ ning
_____ mavzusidagi kurs ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

2. Kurs ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

katta o`qituvchi S.A.Shovdirov

MUNDARIJA

KIRISH.....

I–BOB. UMUMIY TA`LIM MAKTABLARDA TASVIRIY SAN`ATNI O`QITILISHI HAQIDA

1.1. Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standarti

1.2. O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitilishi.....

II–BOB. TALABALARNING SAN`ATSHUNOSLIK MADANI- YATINI RIVOJLANTIRISH.....

2.1. Tasviriy san'atning izohli lug'ati.....

2.2. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash.

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

KIRISH

Borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko`rib hayratga tushamiz. «Bu ranglarda qanchalik ma`no yotadi?» - deb o`yga tolasan. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamiga hayratga tushib, asrlar davomida uni o`rganib kelishgan.

Har bir rang bir olam ma`noni anglatadi. «Nima uchun tabiat yashil rangda yaratilgan? Buning sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo`lsa, qanday ma`noni anglatgan bo`lar edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko`taradi? Qay biri salbiy yoki ijobiy ta`sir ko`rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo`ladimi?».

Asrlar davomida ajdodlarimiz, fan arboblari muayyan darajada ilmiy-tadqiqot ishlarini, tajribalarni o`tkazib kelishmoqda. Hozirda, hatto ba`zi rivojlangan mamlakatlarda maxsus rang institutlari va ilmiy laboratoriyalar bu borada samarali faoliyat ko`rsatib kelishmoqda. Bu o`rinda Yaponiyaning Tokio shahridagi dunyoga mashhur rang institutini ta`kidlash mumkin.

Yirik olimlar tomonidan rang tufayli ramziy ma`noda «so`zlashish», ranglar vositasida insonlarni davolash, tarbiyalash, ranglar jilg`asi orqali falsafiy fikr yuritish, rang orqali insonlarning ichki dunyosini anglash, shuningdek, ranglarning qishloq xo`jaligi unumdorligini oshirishda, iqtisodda va boshqa masalalarni ijobiy hal etishdagi mavqeyi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma`lumki, ta`lim tizimida rangshunos fani o`rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o`quv-qo`llanma, elektron versiya vaboshqalar yetarli emas. Rangshunoslik fanining o`qitish metodikasi bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan.

Ajdodlarimizni amaliy san`at turlaridan qoldirgan ma`naviy merosiga murojaat qilsak, qanday buyum yoki bezak bo`lmasin, ular shakl, rang va hajmga ega. Masalan, o`sha bezakning rangi inson psixikasiga turlicha ta`sir etadi, bu ranglar o`ziga xos ramziy ma`noga hamda shifobaxsh xosiyatga ega bo`ladi. Shunday ekan amaliy san`atning bo`lajak usta - muallimi rangshunoslik fanini chuqur va atroflicha bilishi zarur.

Milliy raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun pedagogika universitetlarida yangi standartlar va o`quv ranglari asosida dasturlar tuzildi. Dasturlar asosida darsliklar yozilmoqda. Mazkur darslik ham pedagogika universitetlarining «Amaliy san`at» bakalavr yo`nalishdagi «Rangshunoslik» fani dasturi asosida yozilgan. Darslik shu yo`nalishdagi talabalar uchun mo`ljallangan.

Har bir mavzu uchun fotosuratlar, chizmalar, amaliy mashqlar, terminlar va adabiyotlar berilgan. Rangshunoslik fanini yaxshiroq o`rganish maqsadida boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilindi. Bu fan fizika, kimyo, psixologiya, falsafa, mantiq, tarix, matematika, fiziologiya, tibbiyot, estetika, etika kabi fanlar bilan chambarchas bog`langandir. Darslikni yozishda akademiklar V.S.Kuzin va M.Nabiyev, olim va tajribali metodistlar X.Egamov, B.Azimova, N.Tursunaliyevlarning yozgan adabiyotlaridan ijodiy foydalanildi.

Metodika ta`lim-tarbiya jarayonida o`qituvchining o`quvchilar bilan ishlash usullarining mazniun xususiyatlarini qarab chiqadi. Ma`lumki, o`qitish jarayonida xilma-xil metodlar qo`llaniladi. Bu yerda ta`lim usuli, o`quv materiallarini joylashishi (o`quv reja, dastur), ta`lim prinsiplari va o`quv tarbiyaviy ishlarning umumiy maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir.

Metodika so`zi, avvalo, ta`lim va tarbiyaning samarali usullarini majmui ma`nosiga aytiladi.

«Metod» grekcha so`z bo`lib, «tadqiqot yo`li», «bilish usuli» ma`nosini anglatadi. Pedagogikada o`qitish metodlari deganda, umumiy o`rta maktab, o`rta maxsus kasb-hunar kolleji o`quvchilarining bilim, malaka va ko`nikmalarni egallashda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o`qituvchilarning qo`llagan ish usullari tushuniladi.

Amaliy metodika esa ta`lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o`rganadi. Pedagogik mahorat, ko`nikmalarni o`rganish va uni egallashga qaratilgan ma`lum iste`dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (moyilliklar) mavjud bo`lishini talab etadi, chunki tasviriy san`at pedagogikaning mashaqqatli va murakkab hamda mas`uliyatli sohasidir.

O`qitish san`ati amaliy mashg`ulotlar mobaynida, uzoq ijodiy mehnat orqali egallanadi.

Demak, tasviriy san`at o`qitish metodikasi pedagogika ilmining ta`lim va tarbiyaning maqsad va vazifalariga tayangan holda samarali o`quv jarayonini tashkil etuvchi, shakl va yo`llarini tadqiq etuvchi sohasidir.

Kurs ishining maqsadi –

Men o`z kurs ishimda Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash bajarish haqida va ularda ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash usullarini o`zlashtirishni, o`z oldimga maqsad qilib qo`yaman.

Kurs ishining vazifasi:

Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash usuli, mana shu bilimimni rivojlantirish.

Kurs ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 30 sahifani tashkil etadi.

I–BOB. TASVIRIY SAN`ATNI O`QITISH METODIKASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA.

O`qitish metodikasi deganda ta`lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yul va uslublar yig`indisi tushuniladi. Mashg`ulotni metodik jihatdan tug`ri tashkil etish esa o`qituvchining o`z oldiga quygan maqsadiga xam bog`liq. Shu bilan birga qisqa va oddiy yo`llar bilan, oddiydan-murakkabga borish printsipida ma`lum ketma-ketlikda erishish nazarda tutiladi. Boshqacharoq, qilib aytganda, o`qitish metodikasi to`g`ri tanlanganda o`quvchilar ko`zda tutilgan o`quv materialini puxta o`zlashtiradilar va ularda o`zlashtirish darajasi bir qadar yuqori bo`ladi.

Metodika so`zining uzi ikki xil bo`ladi: ular umumiy va xususiy metodika hisoblanadi.

Umumiy metodika maktabda olib boriladigan barcha ta`lim-tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o`quv predmetiga nisbatan qo`llaniladi. Metodika, ko`pincha pedagogika, psixologiya va san`atshunoslik, estetika sohasidagi nazariy xulosalarga tayanib ish ko`radi.

Pedagogik nazariyada uch xil metod bo`lib, asosan nutqiy, namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Bu metodlar o`z o`rnida mayda metodlarga ham bo`linadi. Masalan, nutqiy metod hikoya qilish, tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash v.b. shu kabi metodlardan tashkil topadi.

Ko`rgazmali metod esa kuzatish, namoyish etish kabilardan, amaliy ish esa mashq, rasm ishlash, ijodiy ish, uyin kabi metodlarga bo`linadi. O`qituvchilar faoliyatida «uslub» degan suz ham ishlatiladi. «O`qitish uslubi» deb biz o`qitish metodlarining ayrim qirralarini tushunamiz. «O`qitish uslublaridan» o`qitish metodi tashkil topadi.

Masalan, «namoyish etish» metoda asosida o`qituvchi mashg`ulot o`tkazganda, u ekranga san`at asarining tasvirini texnika vositasi orqali tushiradi. Bu jarayonda o`qituvchi suratdagi biron shaklni yirik qilib ko`rsatishi usul hisoblanadi. Shu o`rinda ekrandagi surat tasviri yuzasidan savol-javob o`tkazilganda ham bu yuqoridagi usulning davomi hisoblanadi.

O`qituvchi o`qitish metodlariga asoslanib ish yuritganda u rangshunoslik, perspektiva, yorug` soya, kompozitsiya qonunlari va ularning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shuni hisobga olish lozimki, tasviriy san`atning u yoki bu turining nazariy asoslarini o`rgatganda yoki tasviriy san`atning u yoki bu faoliyat turini o`qitganda o`qituvchi bir xil metodlardan foydalanishi mumkin emas.

O`qitish metodikasining tarixi juda uzoqlarga ya`ni kishilar qachon bir-birlariga rasm chizishni o`rgata boshlagan paytlariga borib taqaladi. U kishilik jamiyatining taraqqiyoti davrida takomillashib borgan, davr o`tishi bilan o`qituvchilar, olimlar uning yangidan-yangi qirralarini ochganlar va u mutaxassislar orasida tarqalgan.

Shuni xam kayd qilish lozimki, shakllangan har bir metod shaklan bir xil bulsa-da, uni bir o`qituvchi, ikkinchi o`qituvchidan o`rganib, shundayligicha qullayvermaydi. Uni xar bir o`qituvchi o`z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar, bolalarning bilim va malakalarining saviyasi, dars mavzusi uning o`ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabilarni hisobga olishi lozim. Shunga ko`ra boshka o`qituvchi qullayottan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshqa o`qituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin.

Shuning uchun qo`llashga muljallangan har bir metod pedagogik faoliyat davomida tajriba-sinovdan o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o`tkazilishi lozim bo`ladi. Chunki, bir sinfga muljallangan bir metodika boshqa vaqtda yuqorida qayd qilinganidek, sharoitga qarab boshqa sinfda boshqacha natija berishi mumkin. Tanlangan va qullanib kelinayotgan har bir metod shaklan o`zgarmay qolsa ham, mazmunan o`zgarishi ham mumkin. O`qituvchining to`xtovsiz izlanishlari, tajribalari asosida uning yangidan-yangi qirralari ochilaveradi. Mutaxassislar orasida tasviriy san`atni o`qitish metodlariga turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh mutaxassislar o`qitish metodlari yagona tizim, yagona talablarga javob berishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikrlariga qaraganda, har bir metod jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bo`lgan, uni o`zgartirmasdan shundayligicha qo`llash lozim. Boshqa guruh mutaxassislarining fikrlariga qaraganda o`qitish metodining asosini har bir o`qituvchining shaxsiy ish

tajribasi tashkil etishi kerak. Bizningcha, masalaga bunday yondoshish to'g'ri emas. Ta'lim-tarbiya sohasida o'qitish metodlari qotib qolmaydi, u doimo taraqqiy egadi. Bunda O'qituvchining tajribasi albatta, katta rol o'ynaydi. Shunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart-sharoitlarni hisobga olib, shakllangan metodika asosida xam, o'qituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalanaverish lozim.

O'qituvchi o'qitish metodikasini ish jarayonida o'z-o'zidan egallayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o'tkazishi, ko'p adabiyotlar o'qishi, ilg'or tajribalarni o'rganishi hamda ulardan tegishli xulosalar chiqarishi asosida paydo bo'ladi. Shuningdek, u jamiyat taraqqiyoti davrida shakllangan o'qitish metodlarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil etishi va uni zamon ruxiga moslashtirgan holda qayta ishlashi asosida namoyon bo'ladi.

XVII-XIX asrlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish metodlarini takomillashtirishda chet el pedagoglaridan Jon Lokk, Jan Jak Russo. Iogani Genrix Pestalottsi, Peter Shmidt, A.Sapojnikov, G.Gippius, N.Kramskoylar katta xissa qo'shgan bo'lsalar, XX asrda rus pedagog-olimlaridan E.S.Kondaxchan, G.B.Labunskaya, N.N.Rostovtsev, V.S.Kuzin, E.E. Rojkovalar, O'zbekistonda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini oyoqqa turgazishda rassom-pedagoglardan M.Nabiev, B.Oripov, Q.Qosimov, B. Azimovalarning xizmatlari katta bo'ldi.

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish muammosi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

«Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, awalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh ni-holga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan oqilona amalga oshirish lozim*¹.

Talabalar ongi va qalbiga milliy. istiqloq g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki o'rta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-

tarbiya jarayo-ning barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviriy san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib topti-rish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.





«Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiya-timoz a'zolarini, awalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdin»¹.

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan «milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» risolasida qayd etilgandek, milliy istiqloq mafkurasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimiz-ning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, ustoz-shogird an'analari, ajdodlarimizning tarixiy merosidan oziqlanadi. Shu sababdan barcha ta'lim muassasalari tayanch o'quv rejalariga o'quvchi-yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonini huquqiy demokratik jamiyat qurish tamoyillariga moslash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kurslariga kiritilgan.




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1990 yil 16 avgust qaroriga ko'ra 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarga barcha fanlar qatori tasviriy san'at talimi bo'yicha ham davlat ta'lim standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O'zbekistonning Mustaqilligi uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'lanadi.

Xozirda xar bir fan bo'yicha shu qatori badiiy estetik turkumdagi fanlardan davlat ta'lim standartlarining yaratilishi uni hukumat tomonidan tasdiqlanishi katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan voqeadir. Mazkur standartlar o'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, respublikamiz maktablarida ta'limni yuqori

ilmiy metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratadi. Davlat standartiga ko`ra tasviriy san`at ta`limi mazmuni bo`shlang`ich sinflarda quyidagi yo`nalishga bayon etilgan.

-  Borliqni idrok etish;
-  Badiiy, qurish, yasash;
-  Naturaga qarab tsvirlash
-  Kompozitsion faoliyat

5-7 sinflarda esa u quyidagi 3 yo`nalishda o`z aksini topgan.

-  San`atshunoslik asoslari.
-  Naturaga qarab tasvirlash.
-  Kompozitsion faoliyat.

Mazkur yo`nalishlar bo`yicha tasviriy sanat o`quv predmetini o`qitishda xar bir o`qituvchi asosiy e`tiborni nimalarga qaratilishini bilib olishi kerakligini o`rganadi. Tasviriy san`atni o`qitishda o`qituvchining e`tibor berishi lozim bo`lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

1. O`quvchilarni borliqdagi (tevarak atrofdagi) va san`at asarlaridagi nafosatniko`rishda idrok etishga va undan zavqlanishga hamha qadrlashga o`rgatish.
2. Bolalarni ijodiy abstrkt mantiqiy fikrlashga ayniqsa ijodiy qobiliyatlari va fantaziylarini o`stirishga yo`naltirish.
3. Tasviriy amaliy me`morchilik san`atlari yuzasidan nazariy biroq umumiy elementlar bilimlar berish
4. O`quvchilarda kuzatuvchanlik, ko`z xotirasi, chamalash, fazoviy tasavvur kabi shaxs uchun muhim bo`lgan sifatlarni o`stirish.
5. Rasm va mashq haykal ishlash yuzasidan tasviriy malakalarni o`stirish.
6. Estetik his hayajonni tarbiyalash va rivojlantirish.
7. San`atga qiziqishni o`stirish va muhabbatni tarbiyalash

Bu vzifalar maktabga tasviriy san`at darsini olib boruvchi xar bir o`qituvchini mutaxasis bo`lishini ta`lab etadi.

Chunki standart mazmuni mutaxassis o`qituvchilar uchun mo`ljallab tuzilgan.

Tasviriy san`at ta`limi davlat standarti san`atning 3 turi:

✚ tasviriy;

✚ amaliy;

✚ me`morchilik san`at ustalari xayoti va ijodini O`zbekistonda san`atning bu turlari rivoj topgan.

Milliy o`zbek san`atini chet el va jahonning xozirgi zamon ilg`or san`atiga qaraganda kengroq va chuquroq o`rgatishdan maqsad xar bir o`zbek o`quvchisi o`z xalqining tarixini, adabiyotini bilishi shart ekanligi kabi uning san`atini ham nisbatan kengroq ilishiga erishishdir. Milliy san`at ta`lim mazmunida poydevor bo`lishi lozim. Ayniqsa yoshlarimiz Misr, Yunoniston, Hindiston me`morchiligi Afg`oniston, Iroq, Turkiya mamlakatlari minatura, rang tasvir asarlarida Yevropada uyg`onish davri tasviriy san`ati rivojlangan g`arb mamlakatlarining xozirgi zamon tasviriy va me`morchilik san`ati namunalarining o`rganmasdan va bilmasdan turib madaniylashgan shaxs bo`lishi mumkin emas. Davlat ta`lim standartlari bo`yicha boshlang`ich maktablarning 4-sinfini bitiruvchi o`quvchilar

1.1 Tasviriy san'at fanidan davlat ta'lim standarti

O'quvchilar tasviriy san'at faniga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- tasviriy san'atning kishilar hayotidagi ahamiyatini tasavvur qilish;
- tasviriy, amaliy-bezak san'ati, me'morlik san'atida ishlatiladigan asosiy atama va tushunchalarni hamda ularning ma'nosini bilish;
- miniatyura san'ati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish;
- tasviriy san'atning nazariy asoslarini bilish va ularga amaliy tasviriy faoliyatda rioya qila olish;
- tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalari (chiziq, siluet, rang, ritm, simmetriya, assimetriya, kompozitsiya)ni bilish va ularni amalda qo'llay olish;
- tasviriy san'atning asosiy tur va janrlarini bilish;

- o'zbek xalq amaliy bezak san'atining turlari va uning mashhur ustalari va ularning asarlarini bilish;
- tasviriy san'atda ijod qiluvchi eng mashhur o'zbek va chet el rassomlarining hayoti va ijodini, ularning ayrim asarlarini bilish;
- O'zbekiston va chet el mamlakatlarining eng mashhur me'morchilik obidalarini bilish;
- 15-20 rang nomlarini bilish va ularni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay olish;
- tasviriy va amaliy san'at asarlarini badiiy idrok eta olish;
- badiiy bezak ishlarini erkin bajara olish;
- qush, hayvon, odamni asliga qarab rasmi va haykalini tasvirley olish;
- tasviriy faoliyatda turli material va uslublardan foydalana olish;
- afsonaviy mavzularda rasm va haykallar ishlaganda ularni fantaziya asosida tasvirley olish;
- tasvirlar ishlaganda o'zbek san'atining milliy badiiy an'analarida maqsadga muvofiq foydalana olish;
- tasviriy faoliyat jarayonida texnika xavfsizligi va gigiyena qoidalariga rioya qila olish.

1.2. O`zbekistonda tasviriy san`atni o`qitilishi.

O`zbek halqi o`zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'atlari va madaniyati bilan faxrlansa arziydi. Chunki, O`zbekiston xududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik turlari va me'morchilik nihoyatda rivojlangan bo`lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiob, Xalchayon, Tuproq qal`a, Bolalik tepa, Ayrtom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo`yqirilgan qal`a, Ajina tepa, Teshik qal`a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, bu asarlar eramizdan avvalgi 4-1-asrlarda yaratilgan bo`lib ularning yoshi 5-6 ming yilga to`g`ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirga zamon rassomlari va xaykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bundan yuksak badiiy saviyadaga asarlarni usha davrda

to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yunalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligadan dalolat beradi. Ma'lum davrlarda O'zbekiston xududidagi san'at taraqqiyotida uzilishlar ruy berganligining sabablari, Iskandar Zulqaynar, mo'g'illar, arab, rus istilollariga borib taqladi. Amir Temur mustaqil davlat tuzgan davrda tasviriy san'atning miniatyura turini gullab-yashnagani xam buning yaqqol dalilidir. Amir Temur davrida miniatyura va kitob grafikasi shunchalik tez rivojlandiki, u na faqat Sharq, hattoki Evropa mamlakatlari san'atiga xam o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, Samarqand, Buxoro, Xirotda miniatyura maktablari bilan bir qatorda Bog'dod, Tabriz, Sheroz, Ozarbayjon, Hind, Isfaxon, Turk miniatyura maktablari xam shakllandi va rivojlandi.

Mazkur miniatyura maktablari rassomchilikdan kasbiy ta'lim yo'nilishida rivojlangan bo'lsada, lekin ulardan umumiy ta'lim tizimidagi tasviriy san'atni o'qitishda bemalol foydalansa bo'ladi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayyorlangan dasturlarda san'atshunoslik asoslari, rangtasvir va kalamtasvir ishlash, naturaga qarab tasvirlash, borlikni idrok etish bo'limlari mavjud bo'lib, kasbiy badiiy va umumiy badiiy ta'lim tizimlari o'rtasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi. Tasviriy san'atning nazariy asoslari xisoblangan rang, hajm, perspektiva, kompozitsiya asoslari kabilar, ham kasbiy, xam umumiy ta'lim tizimida o'rganiladi. Faqat tasviriy san'atni o'qitilishida talaba va bolalarning yoshlari, idroki, psixologik xususiyatlari, tasviriy malakalari hisobga olinishi lozim, xolos.

Tasviriy san'at tarixida buyuk naqqosh va musavvir Kamoliddin Behzodga Xirotda Mirak naqqosh ustozlik qilgani, unga miniatyura rangtasviri sirlarini o'rgatgani haqida ma'lumotlar bor.



Shuningdek, ustoz Mirok, naqqoshning Xirot “Nigoristoni” (San'at akademiyasi) bo'lganligi va unda Komoliddin Behzod tarbiya olganligi ham ma'lum.

Professor Orif Usmonov o'zining «Kamoliddin Bedzod va uning naqqoshlik maktabi», nomli kitobida Behzod Tabrizda yashagan vaqtda nafis tasviriy san'at maktabini yaratganini qayd qiladi. U yerda musavvir o'z atrofiga eng istedadli yoshlarni to'plagan ularga san'atining sir-asrorlarini o'rgattani va Tabrizda Sulton Mudammad, Mirzo Amir, Oko Mirak, Muzaffar Ali, Sulton Mudammad Nur, Shomuxammad Nishopuriy, Yusuf Mullo Mir Ali, Rizo Abbosiy, Maxmud Muzaxxib, Mavlono Yoriy Xasan Bag'dodiy, Abdulla Sheroziy, Darvesh Mudammad, Mir Sayd Ali, Kosim Ali, Xeraviy singari unlab iste'dodli musavvirlarni tarbiyalaganligini yozadi. Uning shogirdlari Behzodning tasviriy san'at uslubini davom etirganlari ham rasmiy ma'lumotlardan ayon.

O'zbekistonda hozirgi zamon ta'lim tizimining paydo bo'lishi XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Rossiyada Oktyabr inqilobi so'zsiz uning mustamlakasi hisbolangan Turkistonga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi tuzum o'zini ko'rsatish maqsadida e'tibordan chetda qolgan chorizimning mustamlaka o'lkalariga e'tibor qaratdi. Shu maqsadda u bir guruh fan va madaniyat vakillarini Turkistonga yubordi. Shulardan bir guruxi Sankt Peterburg va Moskvalik rassomlar edilar. Ularning bir qismi ijodiy ish bilan shug'ullansalar, ayrimlari yoshlar badiiy ta'limiga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Bu rassomlar Turkiston yirik

shaharlarida badiiy studiyalar tashkil etdilar, o`z asarlarining ko`rgazmalarini o`tkazdilar.

1918 yilda Toshkentda badiiy kommuna ochiladi, bir yildan keyin Samarqandda Turkiston o`lka badiiy halq maktabi ishga tushadi. 1920 yilda Andijonda rangtasvir maktabi, Yangi Buxoroda san'at tugaragi tashkil etildi, musulmonlar uchun tasviriy san'at kurslari ochildi. Bir yildan so`ng respublikada badiiy maktab va studiyalar soni 29 taga etdi va unda shug`ullanuvchilar soni 500 kishidan oshib ketdi. 1921 yil kuzida ochilgan badiiy politexnikumda 170 o`kuvchidan 150 tasi o`zbeklar edi.

II-BOB. TALABALARNING SAN'ATSHUNOSLIK MADANIYATINI RIVOJLATIRISH.

Umumiy o'rta ta'lim maktab va kasb-hunar kolleji o'quv-chilarini badiiy ta'lim muammolari uzviy ravishda san'at fakultetida pedagogik kadrlarni tayyoriash bilan bog'liqdir. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalarni san'atshunoslik madaniyatini rivojlanganligi tasviriy san'at atamalarini^{1 1} va tushunchalarini ma'lum darajada o'zlashtirishi, o'ziga xos xususiyatli atamalarni lug'aviy boyligi bilan ta'riflanadi va ulardan foydalanishi hamda ma'lum darajada san'atshunoslikka oid fikrlashlarining shakllanishi bilan belgilanadi. Shu boisdan san'at fakulteti talabalarini san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirish, badiiy ta'limning til asoslarini o'rganish, maktabda tasviriy san'at darslarida atamalar va tushunchalarni o'rgatishning metodlarini o'zlashtirish uchun ta'lim jarayoniga quyidagi 'ma'lumotlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchilar dars jarayonida asarlarini tahlil qilishda turli xil tasviriy san'at atamalardan bevosita foydalanadilar. Ayrim o'qituvchilar esa rus tilidagi «peredniy plan», «sredniy plan», «dalniy plan» kabi atamalarni birinchi plan, ikkinchi plan, uchinchi plan deyishadi. Bu so'zlar ma'noni to'la yoritib bermaydi. «Plan» o'zbek tilida «reja» degan ma'noni bildiradi. Agarda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib ishlatilsa - birinchi reja, ikkinchi reja, uchinchi reja deyiladi. Shuning uchun tasviriy san'at asarlarini tahlil qilishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun atamalarni mazmuniga mos tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Tajribali tasviriy san'at o'qituvchilari bu atamalarni — «oldingi ko'rinish», «o'rtangi ko'rinish», «uzoqdagi ko'rinish» deb qo'llashadi.

«Tabiat ko'rinishi», «manzara» (peyzaj) atamalar bir-biriga yaqin tushuncha, ammo ikkalasi ham ikkita ma'noli atama. Tabiat ko'rinishi — biz ko'rish va sezgi qobiliyatimiz orqali qabul qiladigan real voqealik bo'lsa, manzara — shu ko'rinishning badiiy tasviri.

^{1 1} S. Abdirasilov. *Tasviriy san'at atamalarini*. T.: TDPU, 2003.

Tasviriy san'atni o'rganish jarayonida talabalar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Bular quyidagi sabablar bilan bog'liqdir:

- milliy maktablar tasviriy san'at darsliklari bilan to'liq ta'minlanmagan;
- hozirgi kunda maktab o'quvchilari dars jarayonida atamalar mazmunini chuqur anglamaydi;
- tasviriy san'atni o'rgatish bo'yicha metodik qo'llanma va tavsiyalar juda ham kam;
- pedagogika bilim yurtlarida, oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida atamalardan unumli foydalanilmaydi;
- rassom-pedagog mutaxassislarni tayyorlaydigan institut va bilim yurtlari o'qituvchilarining har bid o'z holicha atamalar tuzishadi. Bu esa betartiblikka va noaniqlikka olib boradi.

O'zbek tiliga o'girilgan tasviriy san'at atamalarining har xilligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Mutaxassis tarjimon bo'lmaganligi atamalarni shakl va mazmunini buzilishiga olib keladi.
- 2 Hozirgi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasida bir so'zga bir necha nomlar qo'llaniladi.
3. Atamalarining har xil bo'lishlik sababi tasviriy san'atning o'zbek tilidagi izohli lug'atini bo'lmasligiga bevosita bog'liqdir.

Tasviriy san'atning o'zbek tilidagi terminologiyasini tartibga keltirish va izoh berish borasida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan terminologiyasining umumiy jarayonlaridan quyidagilarni qo'llash zarur:

1. Rus tiliga tarjimasiz o'tkazilgan baynalmilal atamalarni o'zbek tiliga ham tarjimasiz o'tkazish zarur. Masalan, akvarel, assimetriya, vitraj, galereya, gravyura, mozaika, ofort, panno, pastel, simmetriya, statuya, faktura. fon, estamp, eksterer, etyud va boshqalar.
2. Ba'zan rus tilidagi atamaga loyiq bo'lgan atama topilmasa, shu atamani tarjima qilmasdan o'z nomida qoldirilsa o'rinlidir. Masalan, vizirovanie (chamalash),

pah'tra, zarisovka, ottenok, mazok (surtma), naturshik, axromatik, applikatsiya, janr, illustratsiya, xolst (mato) va boshqalar.

3. O'zbek tilidagi tasviriy san'at atamalarini tuzishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurdir. Ba'zan rus tilidagi bir so'zlik iborani o'zbek tilidagi bir so'z bilan ma'nosini yetkazib berish qiyindir. Shuning uchun ikki so'zni chiziq (-) orqali qo'yib yozish shart. Masalan, kontrast - qarama-qarshi, svetoten — yorug' soya, blik — yaltiroq dog', byust — gavda - haykal..

4. Atamalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda iloji boricha, ichki shaklini saqlash zarurdir. Masalan, rus tilidagi «ornament» atamasi faqatgina «gul» ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no «naqsh» iborasida qo'llanilayapti. To'g'rirog'i «ornament» atamasi «o'yma naqsh» yoki «naqshli gul» tarzida tarjima qilinishi mumkin. «Jivopis» atamaning ma'nosi «tirik, jonli» va «yozish» tushunchalarini bildiradi. Tahlil qilib qarasak jonli yozish bilan rangli tasvirlash iboralari orasida uzoqlik borligi ma'lum bo'lib turibdi. Shu kabi ikki shaklning mazmunini qoldirgan holda tarjima qilib «rangtasvir» iborasi qo'llanilmoqda.

5. Atamalar bilan birgalikda tasviriy san'at asarlarini nomlarini ham to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mazmuniga ko'ra tarjima qilish zarurdir. Masalan, relyef — bo'rtma barelyef — past bo'rtma, gorelyef — baland bo'rtma. Yuqorida qayd qilingan prinsiplarni tasviriy san'atning lug'atini izohlash borasida qo'llanildi.

2.1. Tasviriy san'atning izohli lug'ati.

Tasviriy san'atning izohli lug'atini tuzishda atamalarni tarjima qilish, atamalarni tuzishdagi prinsiplarning qator lingvistik tahlillarning yordami juda zarurdir.

O'quvchi-yoshlarning tasviriy san'at savodxonligini o'zlashtirishda san'at tushunchalarini o'rgatishni o'rni muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at iboralarini o'quvchilarga o'rgatish uchun atamalarni spetsifik xususiyatlariga ko'ra bir necha shakllarga bo'ladi:

Rangtasvirga oid atamalar: akvarel, grizayl, axromatik, blik, (shu'-la), garmoniya, kontrast, nusha, refleks, panno, palitra, manzara, yorug'soya, tus,

tempera, faktura, kolorit, fon, freska, yorug', eskiz, ranglavha (etyud), xolst, monumental, rangtasvir, mozaika, vitraj.

Grafikaga oid atamalar: avtogravyura, kitob grafikasi, titul, frontispis, forzas, shtrix, kontur, sharj, ksilografiya, linogravyura, sgraffito, ottisk, rasm, plakat, siluet, estamp, emblema, ekslibris.

Haykaltaroshlikka oid atamalar: baland bo'rtma, bo'rtma, past bo'rtma, keramika, monumental haykal, obelisk, byust, yodgorlik, profil, simmetriya, haykaltaroshlik, haykal, statuya, sfinks.

Bezakli amaliy san'atga oid atamalar: assimetriya, afisha, glazur, gobelen, bezakli san'at, bezatuvchi, rassomchi, sahna bezagi, naqsh, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik, simvol (ni-shona), faktura, eskiz, eksteryer, interyer, transporant, trafaret, simmetriya, keramika, fayans, kashtachilik.

Kompozitsiyagif oid atamalar: garmoniya, kontrast, kontur, nusxa, xomaki rasm, o'lcham, format, proporsiya (nisbat), simvol, simmetriya, joylashtirish, ritm, perspektiva, chiziq, nuqta, dog', ufq, old ko'rinishi, o'rta ko'rinishi, olis ko'rinishi, ko'rish markazi, dinamik kompozitsiya, stilistik kompozitsiya.

San'at tarixiga oid atamalar: antik san'ati, qadimgi dunyo san'ati, arkada, vandalizm, uyg'onish san'ati, rus san'ati, o'zbek tasviriy san'ati, bezakli amaliy san'ati, badiiy san'at, kapitel, klassik, statuya, sfinks, freska, qarama-qarshi tuslar.

Yorug' — soya va ranglarga oid atamalar: rangtasvirlik, yorug'lik, soya, tus, yaltiroq, dog', shaxsiy soya, tushuvchi soya, yarim soya, tus munosabati, ranglar nisbati, ranglar to'yinganligi, ranglar ochligi, kontrast (qarama-qarshi), kolorit...

Tasvirlash vositalariga oid atamalar: trafaret, akvarel, mo'yqalam, siqma bo'yoq, akvarel bo'yoq, moybo'yoq, xolst, plakat perosi, tush, gnash, pastel, flomaster, format, vatman, stek, mastixin, etyudnik, palitra va hokazo.

O'quv mashg'ulotlarga oid atamalar: narsaning o'ziga qarab rasm chizish, mavzu asosida rasm ishlash, bezakli rasm ishlash, haykaltaroshlik, badiiy qurish-yasash, kompozitsiya, rangtasvir, rang-shunoslik, tasviriy san'at haqida suhbat, borliq va san'atni idrok qilish, san'atshunoslik asblari, qalamtasvir, san'at tarixi.

Tasviriy san'at turlari va janrlariga oid atamalar: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, bezakli amaliy san'at, me'morchilik, ani-malistik janr, manzara, naturmort, maishiy janr, batal janri, tari-xiyjanr, mifologik janr.

Rassomchilarga oid atamalar: animalistik, akvarelchi, batalist, grafik, rangtasvirchi, bezakchi, marinist, ganchkor, naqqosh, port-retchi, haykaltaroshchi, sahna bezovchi, san'atshunos, dizayner, kulolchi, modelyer.

Bunday tartibda atamalarni jamlash o'quvchilarni tushunishiga yengillik tug'diradi. Ayrim bir atamalar bir bog'liqlikda qo'llaniladi, ayrimlari esa barcha turlarida foydalaniladi. Masalan, kompozitsiyaga oid: «kompozitsiya», «joylashtirish», simmetriya, ritm, proporsiya hokazolar juda tez-tez qo'llaniladigan atamalar.

Dars jarayonida yangi iboralarni tushuntirish bilan bir qatorda yangi atamalarni rasm daftariga yozdirib borish maqsadlidir. Ta'lim berish jarayonidagi bunday foydali ishning natijasida o'quvchilarda so'z boyligi rivojlanib tasviriy san'atning qisqacha izohli iboralari yig'iladi. Bu esa hozirgi o'quvchilarga juda ham foydali. Sababi tajriba shuni ko'rsatadiki rasmni ko'ngildagiday chizadigan o'quvchilar ko'plab atamalarni izohini bilishmaydi. Masalan, reproduksiya, illustratsiya kabi atamalarni farqini ajrata olmaydi. Shu borada o'z fikrlarini tushuntirishga so'z boyligi etishmaydi. Bular, ayniqsa, tasviriy san'atning badiiy asarlari bilan tanishtiradigan suhbat darslarida tez-tez uchrab turadi.

O'quvchilarni so'z boyligini kengashtirish, milliy g'oyaviy dunyo-qarashini shakllantirish, tasviriy san'at iboralarini o'zlashtirish masalalarini yechishda izohli atamalarning foydasi juda kattadir. Lekin hozirgi kunda umumta'lim maktablar uchun tasviriy san'atning izohli lug'ati yo'q va yaratilmagan. Bu kabi masalalarni hal qilish mutaxassislar oldida turgan juda muhim vazifalardan biridir.

2.2. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalilik va ularni tayyorlash.

Mashg'ulotning asosiy maqsadi - o'quvchi-talabalar tomonidan tuzilgan dars konspektini mavzulariga ko'rgazmali qurollar tayyorlashni metodik jihatdan o'rgatish. Har bir tayyorlangan ko'rgazmali qurol darsning maqsadini to'liq yoritib

berishi kerak. Bo'lajak dars mavzuyining yoritilishi mobaynida baravar ko'rgazmali qurolning metodik g'oyasining eskizi chizib borilsa maqsadga muvofiqdir. Dastlabki ko'rgazmali qurol eskizlari metodist o'qituvchi bilan bir fikrga kelib tasdiqlangandan so'ng, belgilangan bir vatman qog'ozi betiga did bilan rangda ishlanadi (bajariladi).

Ko'rgazmali qurol eskizlarini bajarishda talaba quyidagi talablarni e'tiborga olishi shart:

- fan dasturidagi tasviriy san'at faniga muvofiqligi;
- didaktik prinsip va qoidalari asoslariga rioya qilgan holda ishlash;
- shaxsning garmonik rivojlanish xususiyatlarini faol shakl-lantirishga yordam berish.

Ko'rgazmali qurolning badiiy bezagi o'z funksional vazifasiga loyiq bo'lishi kerak. Masalan, o'quv jadvali «bosiq» ranglar bilan bajarilishi lozim. Kompozitsion tuzilishning yechimini o'ylab topish

liam muhimdir. Har xil ortiqcha bo'lgan tasvirlar bilan to'ldirishni ham hojati yo'q. O'quv qurollarini bosh yozuvlari (sarlavhalari) qisqa bo'lishi, uning asosiy g'oyasini aks ettirishi lozim. Ravon o'qiladigan shrift tanlangan bo'lishi kerak. Ko'rgazmali qurolning sarlavhasi undagi tasvirlarga nisbatan joylashtiriladi.


Ko'rgazmali qurol tayyorlashda tush, guash, ko'mir tayoqchasi, sangina, pastel, rangli bo'r, akvarel kabilardan foydalaniladi. Plakatlarda tasvirlarning bosqichlari, suv bo'yoqda ishlash sirlari, perspektiv qisqarish sirlari va qonunlari, amaliy ishlarning bosqichma-bosqich bajarilish yo'llari ko'rsatiladi.


Tasviriy san'at dan ko'rgazmali qurollar qo'llanish vazifalariga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Darslarda ko'pincha bosqichma-bosqich ko'rsatuvchi plakatlar qo'llaniladi. Bunday ko'rgazmali qu-rollarni bo'lg'usi o'qituvchi naturaga qarab rasm ishlash, rangtasvir kompozitsiyasi, haykaltaroshlik kabi darslariga mo'ljallab tayyorlashlari lozim.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarida tasvirlash ketma-ketligini bir necha bos-qichlarda ko'rsatiladi.

Naturaga qarab rasm chizish darslarida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollarda tasvirlashning quyidagi bosqichlari ko'rsatiladi:





Ishning rejalashtirilishi - bajarilayotgan vazifani to'g'ri yechimini topishda ishonchlidir.

1. Ma'lum mavzu bo'yicha tasvirlanadigan rasmlarni variantlarining tuzishlari ko'rsatiladi.
2. Kompozitsiyaning asosiy elementlarini tasvirlash.
3. Katta va kichik o'lchamlardagi ko'rimshlarni aniq tuzi-lishini tasvirlash.
4. Narsalarning yorug' va soyalarini bo'yoq bilan ishlash usullarini ko'rsatish.
5. To'liq tugallangan kompozitsiya.

Mavzu asosida kompozitsiya ishlash darslaridagi ko'rgazmali-likni yana bir turi - rangtasvir asoslarini tasvirlash orqali ko'rsati-lishidir. Jozibali rangbarang bo'yoqlar bilan rasm ishlashni o'quv-chilarga og'zaki tushuntirish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun tasviriy san'at o'qituvclii alohida planshetga tortilgan qog'oz



Mavzuli kompozitsiya ishlash.

beti-da suvbo'yoqlar bilan ishlash usullarini ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at tarixi darslarida san'at asarlarini katta o'lcham-dagi • reproduksiyalaridan ko'rgazmali qurol sifatida qo'llaniladi. Oxirgi paytlarda asarlarni katta o'lchamdagi reproduksiyalarini topilishi amri mahol. Bunday hoida

reproduksiyalarni skaner orqali kompyuter xotirasiga kiritib videoko'zgu orqali kattalashtirib ekran-dn ko'rsatiladi va asarlarning badiiylik xususiyatlarini tahlil qiladi.

Tasviriy san'at darslarida bunday ko'rgazmali qurollardan foydalanish darsni samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarni fanga bu'lgin qiziqishini, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda yordam beradi,

Talabaning amaliy mashg'ulot vaqtida o'tkazgan darslari va o'quv tarbiya mashg'ulotlari guruhning barcha talabalari, o'qituvchi ishtirokida tahlil va muhokama qilinadi.

Bu muhokama va tahlillar umumdidaktik va metodik tomonlarini birlashtirib amalga oshiriladi.

Tahlil jarayonida eng muhimi, talaba o'zini o'qituvchi sifatida tasavur qilib o'z ishini uddasidan qanchalik chiqar olishini to'g'ri baholay bilishidir.

Maktab yoki kollejdagi pedagogik amaliyotiga chiqishdan avval tasviriy san'at darslarini o'tkazish oldidan mashq qilinishi, bo'lg'usi o'qituvchilarning serunum professional o'sishiga yordam beradi.

Oliy o'quv yurtida mashg'ulotlar jarayonida talabalar tomondan o'tilgan tasviriy san'at darslari yoki tarbiyaviy tadbirlar guruhidagi tahlili, odatda, o'zini o'zi baholashdan, o'zining hisobotini tahlil qilishdan, darsdagi holati va pedagogik taktini baholashdan boshlanadi. Bunda bo'lajak rassom o'qituvchi uchun juda zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

O'tilgan darslarning tahlil qilinishi dars berishdan ham muhimroqdir, chunki shu tahlildan keyin ular yana nimalar ustida ish-lashi kerakligi yoki qanday muvaffaqiyatga erishganliklari aniq va ravshan ko'rinadi.

O'tilgan darslarni tahlil etish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

1. Darsning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantirish maqsadlarini aniqligi va ahamiyati.
2. Darsga tayyorgarlik ko'rishda va uni amalga oshirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi.
3. Ta'lim-tarbiya vazifalarining dars tuzilishiga mosligi.

4. Darsni bayon etishning ketma-ketligi va mantiqiyli va dars berish nutqining toni, ritmi, ta'sirchanligi.
5. Yangi materialning tanlanganligi va bayon etilishi. Bilimlar hajmi, material mazmuni dasturiga, o'quvchilarning bilim daraja-siga mos kelishi va darslik talablariga muvofiqligi.
6. Bayon qilinayotgan materialning ilmiy va g'oyaviy yo'nalganligi, hayotiyli, tarbiyaviy xarakterdaligi.
7. O'quv materiallarni bayon qilishda, didaktik prinsiplarga amal qilinishi, darsning bosqichlari va davomiyligi.
8. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirilishi, dars bos-qichlarida o'quvchilarning diqqat e'tiborini saqlab turish usullari, Avval o'tgan mavzular bilan bog'liqligini ta'minlanganligi. Mavzuni idrok qilish va anglab olishlari uchun o'quvchilarni ijodiy ishga jalb qilinishi.
9. Dars o'tish metodlarining optimalligi (suhbat, ko'rgazmali, amaliy induktiv va deduktiv, reproduktiv va izlanish, mustaqil ishlash metodlari, ta'limni sifatini nazorat qilish metodlari). Darsni bayon etish tizimi va ketma-ketligi, obrazlilik, tushunarlilik. O'quvchilarning oldiga muammoli savollarning qo'yilishi, mantiqiy masalalarning shakllanishi.
10. Dars o'tish mobaynida ta'lim shakllarini optimal birligi (umumsinfli, guruhli, individual) Individual yondashishni amalga oshirilishi.
11. Darsni o'tish vaziyatida turli ko'rgazmali qurollardan, kinofilmlardan va axborot texnologiya vositalaridan, sinf taxtasidan umumli foydalanganligi.
12. Mavzuni mustahkamlashga berilgan ijodiy mustaqil ishlar yo'nalishlarining optimalligi.
13. O'quvchilarning darsdagi xulqi, darsga bo'lgan munosabati, faollik darajasi, qiziqishi, intizomining ahvoli, intizom buzilishining sabablari.
14. Uy vazifalarining turlari va hajmi, ularni bajarish to'g'risida o'qituvchining metodik ko'rsatmalari, uy vazifalarining mazmunini o'quvchilarning tushunib olishlari, ba'zilariga qo'shimcha (individual) vazifalar berish.
15. O'tilgan darsga umumiy xulosa yasash.

XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng, O`zbekistonda ta`lim sohasida keng imkoniyatlar ochildi, vatanimizning halqaro sahnadagi muvaffaqiyati, obro`tibori va o`rni milliy o`zligimizni anglashda, Tasviriy san`at fanlari yetakchi mavqe kasb etib, har bir fuqoroning mamlakat taqdiri uchun mas`ullik hissini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa shuki, talabalarga boshlang`ich sinflardan boshlab, tasviriy san`at mashg`ulotlarini ham amaliy, ham ilmiy–nazariy jihatdan yaxshi o`qitilishi shart.

O`tmish tarixdan aniq ma`lumki, qadimda buyuk rassomlar tasviriy san`atning ilmiy asoslarini qo`llash natijasida, katta yutuqlarga erishganlar.

Bularni talabalarga o`qitishda didaktiv prinsiplarning asosiysi hisoblangan– ilmiylik prinsipi yetakchi o`rin egallashi lozim.

Men o`zimning kurs ishimda tasviriy san`at haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim Shu bilan birga tasviriy san`atga doir bir nechta misollarni ko`rsatdim. Men o`z kurs ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. N. Abdullaev. San`at tarixi. 1 – tom. –T.: “O`qituvchi”. 1986.
2. B. Azimova. Natyurmort tuzish va tasvirlash. -T.: “O`qituvchi”. 1984.
3. B. Boymetov, S. Abdirasilov. Chizmatasvir. –T.: G`ofur G`ulom-matbaa ijodiy uy. 2004.
4. R. Xasanov. Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi. -T.: “Fan”.2004
5. S. Abdirasilov. Tasviriy san`at atamalari. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2003.
6. B. Boymetov. Portret qalamtasviri. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2001.
7. R.Hasanov Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. T.: Fan. 2004
8. www.nbgf.intal.uz